

XITOYNING HUDUDIY DAVOLARI

Amanov Allabergan Kutlimuratovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

Geografiya kafedrasi katta o‘qituvchisi

Ko‘palova Hilola Tohir qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

Geografiya yo‘nalishi 2 – bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xitoy Xalq Respublikasi qo‘shnilari va ular bilan bog ‘liq hududiy davolari haqida fikr yuritilgan bo’lib, o’z navbatida ularning kelib chiqish sabablari hamda bartaraf qilish yechimlari haqida o’ziga xos mulohazalar berilgan. Mazkur mavzuni o’rganishda matematik-statistik, siyosiy-geografik tahlil, kartografik va qiyosiy baholash usullari, hamda tarixiylik va hududiylik tamoyillaridan foydalanildi.

Kalit so’zlar: Bahsli hududlar, Aksay hududi, Arunachal-Pradesh shtati, Tavang tumani, bahsli orollar, Katta Ussuriy oroli, Tayvan oroli, Spratli arxipelagi, Senkaku orollari.

ТЕРРИТОРИАЛЬНЫЕ ПРЕТЕНЗИИ КИТАЯ

Аманов Аллаберган Кутлимуратович

Старший преподаватель кафедры географии

Ургенчский государственный университет

имени Абу Райхана Аль-Бируни

Купалова Хилола Тахир кизи

Студентка 2-курса географии

Ургенчский государственный университет

имени Абу Райхана Аль-Бируни

Аннотация: В статье рассматриваются соседи Китайской Народной Республики и их территориальные споры, а также даются конкретные комментарии относительно их причин и решений. При изучении данной темы использовались математико-статистический, политико-географический

анализ, картографический и сравнительно-оценочный методы, а также принципы историчности и территориальности.

Ключевые слова: спорные территории, Аксайчин, Аруначал-Прадеш, округ Таванг, спорные острова, остров Большой Уссурийский, остров Тайвань, архипелаг Спратли, острова Сенкаку.

CHINA'S TERRITORIAL CLAIMS

Amanov Allabergan Kutlimuratovich

Senior Lecturer, Department of Geography

Urgench State University

named after Abu Rayhan Al-Biruni

Kupalova Hilola Tahir kizi

2nd year geography student

Urgench State University

named after Abu Rayhan Al-Biruni

Abstract: This article discusses the territorial disputes of the People's Republic of China with its neighbors, and in turn, gives specific comments on their causes and solutions. The study of this topic uses mathematical-statistical, political-geographical analysis, cartographic and comparative assessment methods, as well as the principles of historicism and territoriality.

Keywords: Disputed territories, Aksai region, Arunachal Pradesh state, Tawang district, disputed islands, Greater Ussuri Island, Taiwan Island, Spratly archipelago, Senkaku Islands.

KIRISH. Xitoy Xalq Respublikasi dunyoda maydon kattaligi jihatidan, Rossiya va Kanadadan keyingi 3-orinda turuvchi, 9 596 960 km.kv maydonga ega davlat. Ayni paytda chegaradosh mamlakatlar soniga ko‘ra, jahonda 2-o ‘rindagi mamlakat hisoblanadi. Jumladan quruqlikda 13 davlat bilan chegaradosh 4 dengizlar orqali chegaralariga ega (Vietnam hamda Shimoliy Koreya bilan ham quruqlikda ham dengizda chegaralari mavjud). Xitoy o‘zining hududiy ajralmas bir qismi deb hisoblaydigan, lekin jahonning ayrim davlatlari uning mustaqilagini tan olgan, hamda amalda o‘zini to’la mustaqil sanaydigan Tayvan bilan ham dengiz orqali chegaradoshdir. Shuningdek hududiy davo qilinayotgan, bahsli orollar,

Parasel, Spratli orollari kabi yana boshqa orollarni nazorat qilish orqali, qo'shimcha ravishda Filippin Respublikasi, Buruney Sultonligi va Malayziya Qirolligi bilan chegaralarga ega bo'ladi.

Xitoy hukumati - qo'shni davlatlarga nisabat ochiqlik va inklyuzivlik siyosatini yuritadi. Jumladan, **SHHT** orqali Rossiya va O'rta Osiyo mamlakatlari bilan, **ASEAN**-markazlikni qo'llab-quvvatlash orqali Xitoy-Yaponiya-Janubiy Koreya hamkorligini mustahkamlaydi. Shuningdek, **Lansanszyan – Mekong** havzasidagi hamkorlik evaziga Vietnam va Laos kabi qo'shni mamlakatlar bilan turli jabhalardagi hamkorlikni jadal rivojlantirmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI: Mazkur mavzuni yoritishda ko'pgina ilmiy ishlar va internet syatlari ma'lumotlaridan foydalanildi. Keltirilgan ushbu ma'lumotlar katta qismi o'rganilgan ma'lumotlarni tahlil qilsih asosida yoritildi. Ayniqsa, Xitoyning Hindiston, Rossiya federatsiyasi, Tojikiston, shuningdek janubiy sarhadlaridagi bahsli orollar haqidagi internet saytlaridagi ma'lumotlar batafsil o'rganildi va yetarli darajada ochib berishga harakat qilindi.

Ushbu maqolada mualliflarning shu yo'nalishda nashr qilingan ishlariga murojat qilindi.

“Bahsli hududlar” doimiy ravishda paydo bo'ladi, chunki dunyo manzarasi o'zgarib bormoqda va davlat chegaralari shunga mos ravishda o'zagarib boraveradi [1]. Bu holat Xitoyga ham tegishli, negaki u doimiy ravishda qo'shnilar bilan huduiy davolarga kiradi.

ASOSIY QISM.

Hech kimning bo'limgan hududlar kamdan-kam uchraydi, hududning “hech kimniki maqomi” tug'ilishi bilanoq, qo'shni davlatlar qoida tariqasida unga o'z da'volarini bilan chiqadilar[2].

Xitoy qo'shnilar bilan ularning mavqeyiga monand ravishda iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni shakllantiradi, hamda yana bir narsaga alohida e'tibor qaratadi-ki, mazkur qo'shni davlatlarni ittifoqchilari bilan bo'ladigan keyingi vaziyatlarni ham diqqat markazidan qochirmaydi. Yana, u Xalqaro

Hamjamiyatning salbiy nazariga tushmaslikka ham harakat qiladi (Uyg'ur millatiga qaratilgan zo'rovonliklarni o'z ichki ishi deb hisoblaydi).

Ammo, Xitoy yuritayotgan bu siyosatni ko'pgina davlatlar "**Zar to'n yopgan ajdarho**" timsolida qaraydilar, jumladan uning asosiy sheriklari, Rossiya va O'rta Osiyo mamlakatlari ham.

Lekin Xitoy hukumati "Osiyoda vujudga kelgan besh tamoyil ijtimoiy tuzum va mafkuradagi tafovutlarni yengish imkonini beradi, xalqaro munosabatlarning asosiy normalari va xalqaro huquqning asosiy tamoyillariga mos keladi hamda davlatlararo munosabatlarni to'g'ri tartibga solishga Sharq donishmandligining hissasi bo'lib xizmat qiladi" deb hisoblaydi [5].

Ba'zi Xitoy nashrlarida quyidagicha maqolalarni ham ko'rishimiz mumkin-ki, ularda bayon qilinayotgan fikrlar chuqur o'ylanishga majbur qiladi.

"1864 yilda Rossiya imperiyasi bu paytga kelib o'z ta'siri va qudratini yo'qotgan imperator Sinni imperiyaning shimoli-g'arbiy hududlaridan voz kechishga majbur qildi. Umuman olganda, Xitoy o'shanda 510 ming kilometr kvadrat maydonidan ayrildi. Va butun Qirg'iziston ushbu yo'qotilgan hudud tarkibida edi. Aslida Qirg'iziston xuddi Mo'g'iliston kabi qadimdan Xitoy yerlari hisoblangan"[6].

Xitoy nafaqat, Mo'g'iliston, Qirg'izistonga, balkim Rossiyaga ham hududiy davolarini yashirmaydi.

Hatto, 2011-yilda Tojikistonning 1158 kv. km hududi Xitoy ixtiyoriga o'tkazilganini yoritgan maqola ko'plab tojikistonliklarni g'azablantirgan edi. Tojikiston bu yerlarni o'z qarzlarining bir qismidan qutulish uchun Xitoy ixtiyoriga topshirgannini ta'kidlab keladi.

Bunga misol, Xitoyning "Standart xaritalar kartografik xizmati" davlat sayti 2023 yilga mo'ljallangan yangi, rasman tasdiqlangan geografik xaritalar to'plamini chiqardi. Unda Rossiya hududlarining bir qismi Xitoy tarkibiga kiradi [6].

Bu Rossiya va Xitoy o'rtasida 2008 yilda tuzilgan shartnoma asosida bo'lingan Amur daryosida joylashgan **Katta Ussuriy oroli** to'laligicha Xitoyning

eng sharqiy nuqtasi sifatida mazkur xarita kiritilganligidadir. Rossiya bu vaziyatda Xitoyga deyarli e'tirozlar oshkora namayon qilmadi. Nega-ki, Rus-Ukrain urushida Xitoy Rossiyaning asosiy iqtisodiy sherigi bo'lib qolmoqda.

Aftidan mazkur xarita orqali Xitoy yaqin yillarga mo'jallagan chegara lohiyalariga qo'shni yohud ushbu masalalarga befarq bo'limgan mamlakatlarini hatti-harakatlarini aniqlash, hamda ularga mos variantlarni ishlab chiqarish maqsad qilgan bo'lsa ajabmas.



1-rasm. Xitoyning hududiy da'volari karta-sxemasi [5].

"Namunaviy xarita Xitoy va dunyoning boshqa mamlakatlari chegaralarini loyihalash bo'yicha milliy standartlarga muvofiq tuzilgan", — deyiladi izohda [6].

Bu xarita ba'zi qo'shni davlatlarning kuchli e'tiroziga sabab bo'lgan. Xitoy Janubiy Tibet deb ataydigan Hindistonning Arunachal-Pradesh shtati va 1962 yilgi urush paytida Xitoy tomonidan bosib olingan Ladaxdagi Oqsay Chin chegara hududi ham yangi geografik xaritada Xitoy hududi tarkibiga kirdi.

Hindiston Xitoyga bir necha bor “Arunachal-Pradesh Hindistonning ajralmas qismi bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi”, deb bir necha bor ta’kidlagan. Hindiston Tashqi ishlar vazirligi matbuot kotibi Arindam Bagchi Pekinga xaritaning chiqarilishiga keskin norozilik bildirdi [6].

Xaritada, shuningdek, Xitoyning Tayvan oroliga da’vosi va Xitoyning Janubiy Xitoy dengizining katta qismiga da’vosini ifodalovchi “to‘qqiz chiziqli chegara” ko‘rsatilgan.

MUNOZARA. Tayvan oroli – Xitoy orolini o‘z mamlakatini bir qismi deb biladi va ko‘p yillardan beri bu borada yakdil pozitsiyada turubdi, ammo orolda mustaqil Tayvan davlati mavjud, hamda dunyoning 20dan ortiq mamlakatlari uni tan oladilar. Bu davlatni tan olgan AQSH Xitoy hukumati qachonlardir, orolni harbiy yo‘l bilan egallahga urunishlar qiladi degan taxmin qiladi va mazkur orolga doimiy ravishda harbiy yordam berib keladi.

Xitoyning Sharqiy va Janubiy Osiyo mintaqalarida hududiy davolari ham mavjud. Xitoyning Hindiston bilan bahsli hududi bu **Arunachal Pradeshdir**. Hindistondagi mustamlaka davrining yana bir bahsli merosi. 1951 yilda Tibetni bosib olgan Xitoy Himolay tog‘laridagi demarkatsiya chizig‘i bo‘yicha Angliya-Tibet kelishuvlarining nomuvofiqligi tufayli Hindistonning Arunachal-Pradesh shtatining bir qismiga da’vo qiladi, xususan, **Tavang** tumanini o‘z hududi deb hisoblaydi. Dunyodagi eng ko‘p aholi yashaydigan ikki davlat o‘rtasidagi bunday tortishuv oldindan aytib bo‘lmaydiganligi tufayli xavflidir: 1962 yilda Hindiston va Xitoy o‘rtasidagi durang bilan yakunlangan chegara urushi bu asosdagi yagona qurolli to‘qnashuv bo‘lmasligi mumkin.

Tinch okeanidagi **Spratli arxipelagi** Xitoy, Tayvan, Vyetnam, Malayziya va Filippin o‘rtasidagi bahs mavzusidir. Arxipelagning bir qismiga 1984 yildan beri Bruney da‘vogarlik qilmoqda. Ushbu orollar uchun kurash bir necha bor qurolli to‘qnashuvlarga olib keldi. Xususan, 1974 yilda Xitoy va Janubiy Vietnam harbiy-dengiz kuchlari o‘rtasida dengiz jangi bo‘lib o’tdi.

Janubiy Xitoy dengizidagi **Parasel orollari** Xitoy va Vyetnam o‘rtasidagi bahs mavzusi. Xitoy orollarni 1974-yilda egallab olgan va hozirda Xitoy tomonidan qurilgan havo kuchlari bazasi joylashgan.

Sharqiylar dengizidagi **Senkaku orollari** hozirda Yaponiya, Xitoy va Tayvan o‘rtasida bahsli, ammo Yaponiya harbiy-dengiz kuchlari tomonidan nazorat qilinadi. Ularning yonida neft zaxiralari topilgan. Bu esa ushbu hududlarga bo’lgan da’volarni yanada kuchayishiga olib keladi.



2-rasm. Spratli arxipelagi va Parasel orollari bahsli hududlar sifatida[4].

Kashmir - Hindiston yarim orolining shimoli-g’arbiy qismidagi bahsli mintaqa. Hindiston va Pokiston o‘rtasidagi hududiy nizoning asosiy sababchisi Kashmir ko’plab mintaqalardan iborat, ammo Jammu va Kashmir, bu shtatdagi eng gavjum ikkita mintaqasidir, bahsli hududning boshqa mintaqalar Ladax, Gilgit, Baltistan va Skardu ham bor.

Jammu - Kashmirning atrofidagi ziddiyat 1947 yilda Britaniya Hindistoni bo’linganidan keyin paydo bo’lgan. Bo’linish diniy tamoyillar asosida bo’lib o’tdi: aholisi asosan hindular bo’lgan viloyatlar Hindistonga, asosan musulmonlar

yashaydigan viloyatlar Pokistonga bo'lindi. Biroq, aksariyat musulmonlardan iborat knyazlik Jammu va Kashmir shtati Hindiston suvereniteti ostiga o'tdi. Natijada bu holat Pokistonga ma'qul bo'lmadi va ikki davlat o'rtasida 1947-1966 yillar oralig'da uchta urush kelib chiqdi, hamda Kashmir hududi uch davlatga quyidagicha bo'lindi: Hindistonga - 60%, Pokistonga 30%, Xitoyga 10%. Shuningdek, mazkur hududda istiqomat qiluvchilarning bir qismi "Mustaqil yagona Kashmir" davlatini tashkil qilsih uchun harakat qilmoqdalar.



3-rasm. Kashmirdagi bahsli hududlar [3].

Aftidan, Kashmirning mustaqil bo'lishi, gohud to'laligicha Hindiston yoki Pokiston tomonigan egallanishi uzoq yillarga cho'zilishi mumkin, lekin Xitoy qo'liga o'tib ketgan hududlarning qaytarib olish dargumonligicha qolib ketaveradi.

XULOSA. Xitoy quruqlikdagi yohid suvli sarhadlaridagi o'z qoshnilari bilan yuqori ta'kidlaganimizdek bir qator hududiy davolarga ega va ayni paytda unga nisbatan ham bunday davolar ham yo'q emas. Shuningdek mamlakat barcha qo'shnilar bilan hududiy kelishmovchilikka bormaydi, lekin vaqt o'tishi bilan bunday davolarning shakllanishi ham ko'zga tashlanishi mumkin. Umuman hozirgi kunda mavjud bahsli hududiy muammolarni hal qilishda Xitoy hukumati doimiy

ravishda qisqa yoki uzoq yillarga mo'jallangan reja asosida harakat qiladi. Toki bu urunishlar Xitoy uchun hoh ijobiy - hoh salbiy ko'rinishdagi yechimiga ega bo'lsada, va u ayni paytda asosiy to'siqlarga yetib borguncha davom qilaveradi. Xitoy uchun asosiy to'siqlar esa - Yaponiya, AQSH, Hindiston va Rossiya Federatsiyasidir. Xitoy uchun katta to'siq bo'la olmaydigan davlatlar esa hududiy majorolardan qochishuchun ushbu katta to'siqlar ortiga bekinib olgan, masalan, Tayvan - AQSH, Janubiy Koreya - AQSH va Yaponiya, shuningdek, Mo'g'iliston, Vietnam, Qozog'iston, Tojikiston – Rossiya Federatsiyasi orqali Xitoyning hududiy bosimidan qochadi.

Mavjud hududiy davolarni hal qilishda Xitoy quyidagi yo'nalishda harakat qilsa maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- Birinchidan, Xitoy hududiy birligini qayta tiklash maqsadida Tayvanni tinch yo'l bilan, iqtisodiy mustaqillik va siyosiy muxtoriyat evaziga qo'shib olish (AQSH ta'sir doirasini iqtisodiy qo'llab quvvatlash orqali yo'q qilish hamda Gonkong kabi ikki iqtisodiyotli rejim tashkil qilish bilan);
- Ikkinchidan, Hindiston bilan ikmon qadar, urushlarsiz chegara masalalarni bartaraf qilish (chunki, Hindiston Xitoy bilan bevosita chegaradosh har taraflama qudratli, jumladan yadro arsenali mavjud, ko'p sonli armiyaga ega va iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan mamlakat);
- Rossiya Federatsiyasi, shuningdek, uning asosiy ittifoqchilari sanalgan, Shimoliy Koreya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Vietnam kabi davlatlar bilan hududiy nizolarni shakllantirmaslik (bunday vaziyat yuzaga kelsa Xitoy Rossiyadan uzoqlashish evaziga, jahon siyosiy ayvonida yakkalanib qoladi).

Xitoy hukumati ayni paytda iqtisodiy yordam, zarur mamlakatlarga katta miqdorda qarz berish orqali ularni iqtisodiy qaramlik qilish siyosatini yuritmoqda, bu ham o'z navbatida, unga qo'shni va qo'shni bo'limgan davlatlarning "Xitoy

qarmog'i" iborasi bilan undan qochishga yohud u bilan masofa saqlab iqtisodiy munosabatlar olib borishga sabab bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Amanov A. K., Ko'Palova H. T. DUNYONING BAHSLI HUDUDLARI //Экономика и социум. – 2024. – №. 6-2 (121). – С. 67-77.
2. Amanov A. K., Ko'Palova H. T. DUNYONING HECH KIMGA TEGISHLI BO'L MAGAN HUDUDLARI //Экономика и социум. – 2024. – №. 7 (122). – С. 19-24.
3. Kuvondik, Yarashev & Abror, Xayitbayev. (2024). ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ОАЗИСНЫХ ЛАНДШАФТОВ КАК ТИПА АНТРОПОГЕННЫХ ЛАНДШАФТОВ. Экономика и социум. № 12.
4. Kuvondik, Yarashev & Abror, Xayitbayev. (2024). ЛАНДШАФТЫ РОЩА ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ И НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ИХ МОНИТОРИНГА. Экономика и социум. №12.
5. <https://www.eiir.eu/international-law/international-law-cases/kashmir-a-disputed-territory/>
6. <https://www.forbes.com/sites/outofasia/2017/08/22/making-sense-of-the-south-china-sea-dispute/>
7. <https://qalampir.uz/uz/news/uzok-k-arindoshdan-yak-in-k-ushni-afzal-khitoy-tiv-98585>
8. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/xitoyning-yangi-xaritasi-elon-qilindi-rossiya-va-hindiston-hududlari-xitoy-tarkibiga-kiritildi.>